

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**IJTIMOIY - IQTISODIY FAKULTETI**  
**IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT YO'NALISHI**  
**206-GURUH TALABASI**

**TURSUNOV AKBARNING**

**JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTI**

fanidan tayyorlagan

**REFERATI**

Mavzu: *Cho 'lpon hayoti va ijodi*

Topshirdi:

A.Tursunov

Qabul qildi:

D.Ashurov

Namangan 2014

## **Mavzu: Cho`lpon hayoti va ijodi** (1898-1938)

Reja:

1. Ijodiy merosi, dastlabki she`r va hikoyalari.
2. Cho`lpon she`riyatining mavzu doirasi.
3. Cho`lpon dramaturgiyasi.
4. Hikoya va publistik asarlari.
5. «Kecha va kunduz» romanida tarixiy o`tmish xaqiqatining o`ziga xos talqini.

Cho'lponning iqtidori noyob, iste'dodi o'tkir, ilhomni xayol singari edi. Biroq u o'z ijodiy imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqara olmagan. Shoир ko'zi ko'rgan, ko'ngli tuygan, iqtidori pishitgan durdona asarlarini qog'ozga ko'chirishga ulgurmay, armon bilan dunyodan o'tgan. Cho'lpon shaxsga sig'inish hukmronlik qilgan qaltis davrda, ayni kuchga to'lgan va ijodiy kamolotga yetgan chog'i qirq yoshida «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olingan va 1938-yili qatl etilgan.

1956-yilda Cho'lpon nomi oqlandi. Biroq bu holat uni ijodkor sifatida o'qish-o'rganish imkonini bermadi. Faqat istiqlolga erishilganidan so'nggina uning ijodi o'zining asl bahosini oldi, qadrini topdi. Natijada, Cho'lponning «Yana oldim sozimni» (she'rlar), «Kecha va kunduz» (roman), «Yorqinoy» (pyesa) kabi bir qancha ajoyib asarlari qayta nashr etildi. Cho'lponning hayoti va ijodi haqida Ozod Sharafiddinov, Nairn Karimov, D. Quronov, Z. Eshonova, N. Yo'ldoshev kabi olimlarning bir qancha tadqiqotlari yaratildi.

Avvalo shuni qayd etish lozimki, Cho'lpon ijodi 20-yillardayoq ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etgan. Cho'lpon she'riyatiga birinchi bo'lib o'z davrining taniqli munaqqidi Vadud Mahmud yuqori baho bergen. U shoirning «Buloqlar» to'plami haqidagi taqrizida: «*Bu kun o'zbek adabiyotiga yana yangi bir to'n kiygizildi, Cho'lponning «Buloqlar» otliq yangi bir she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Cho'lpon o'zbekning yangi shoiridir. Shuning uchun o'zbek elining bu kungi ruhi, holi, sevgisi «Buloqlar»da qaynaydir. O'zbek tili, o'zbek ohangi «Buloqlar»da sayraydir. O'zbekning ruhi to'lqunlari bunda ko'piradir, ko'klar tomon uchadir, ko'tariladir»* («Turkiston» gazetasi, 1924-yil, 10-dekabr), — deb yozgan edi.

Umuman olganda, 20-30-yillarda Cho'lpon ijodi haqida ko'plab maqola va taqrizlar yozilgan. Olim Sharofiddinovning «O'zbek shoiri Cho'lpon», Oybekning «Cho'lpon shoirni qanday tekshirish kerak», Usmonxonning «Munaqqidning «munaqqidi» kabi maqolalari shu davrning mahsulidir. Biroq bu davrda yozilgan maqolalarning aksariyatida shoir ijodi ko'proq qora bo'yoqlarda yoritilgan. Masalan, «O'zbek shoiri (Cho'lpon) nomli maqolada *«Cho'lpon yo'qsul xalqning shoiri emas. U millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir...»*, — deb yozilgan.

XX asrning 20-30-yillarida Cho'lpon ijodi, asosan, qoralangan bo'lsa, so'nggi davrlarda, xususan, XX asrning 90-yillaridan boshlab shoir asarlarinmg g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etishda xolislik tamoyillariga tayanildi. Shunga ko'ra, Cho'lpon ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Chunonchi, Ozod Sharafiddinov, Baxtiyor Nazarov, Nairn Karimov, Erik Karimov, Sherali Turdiyev kabi munaqqidlarning turli maqola va risolalarida Cho'lponning she'riy va nasriy asarlari hozirgi kun talablari darajasida tahlil clilgan. Cho'lponning ulug' va noyob ijodkor, xalqparvar va vatanparvar yozuvchi ekanligi ko'plab dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Ozod Sharafiddinov o'zining «Cho'lponni anglash» risolasida shoir ijodini sinchkovlik bilan teran tahlil qilib, haqli ravishda quyidagi xulosaga kelgan: «*Cho'lponni anglash - so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho'lponni anglash — uning buyuk umumbashariy g'oyalarini, uning yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olishdir. Cho'lponni anglash -Vatanni, ko'hna Turkistonimizni Cho'lpon ko'zi bilan ko'rib, Cho'lpon yuragi bilan seva bilmoxdir. Bir so'z bilan aytganda, Cho'lpon har bir adabiyot muxlisining yurak mulkiga aylanishi shart. Buning uchun esa Cho'lpon merosini yangi tafakkur asosida bag'rikenglik bilan tadqiq etmoq lozim*<sup>1</sup>

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon («Cho'lpon» -taxallusi. U «Tong

---

<sup>1</sup> Sharafiddinov Ozod. Cho'lponni anglash, — T.: «Yozuvchi», 1994, 46-bet.

*yulduzi» ma'nosini anglatadi) Andijonda savdogar oilasida tug'ilgan. Shoirning aniq tug'ilgan vaqtি borasida ilmda har xil qarashlar bor. Jumladan, taniqli olim professor N. Karimov yozadi: «*Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning tug'ilgan sanasi shu paytgacha ilmiy adabiyotda 1897-yil, deb kelingan edi. Adabiyotshunoslar shu sanani Cho'lponning tug'ilgan yili sifatida tanlaganlarida 1937-yilda bo'lib o'tgan tergov materiallariga asoslangan edilar. Ammo boshqa mo'tabar yozma va og'zaki manbalar uning 1898-yilda tug'ilganini tasdiqlaydi. Shuning uchun ham bundan keyin shu sanani Cho'lponning tug'ilgan yili, deb belgilashimiz to'g'ri bo'ladi*»<sup>2</sup>. Taniqli cho'lponshunos garchi «mo'tabar manbalar» qaysilar ekanligini keltirmagan bo'lsa-da, uning fikrini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Cho'lpon eski maktab va madrasa ta'limini olgan. Rus-tuzem mакtabida o'qigan. Sharq va G'arb adabiyotlarini puxta o'rgangan. Nizomiy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Umar Xayyom, Bedil, Fuzuliy, Thakur, Pushkin, Lermontov, Gogol, Tolstoy, Dostoyevskiy, Chexov, Gorkiy, Mayakovskiy, Yesenin, Abdulla To'qay, Muqimiy, Furqat kabi yozuvchilar ijodi bilan astoydil qiziqqan. Cho'lpon arab, fors, turk, rus lillarini yaxshi bilgan. A. Pushkinning «Dubrovskiy», N. Gogolning «Revizor», M. Gorkiyning «Ona», V. Shekspirning «Gamlet» kabi mashhur asarlarini, shuningdek, Krilov, Blok, Bryusov va boshqalarning she'rлarini o'zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilgan.*

Cho'lponning adabiy-ijodiy faoliyati 1913-yilda boshlangan, uning dastlabki she'r, hikoya, ocherk va maqolalari «Sadoyi Farg'ona», «Sadoyi Turkiston», «Turkiston viloyatining gazetasi», «Oyina», «Sho'ro» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan. Cho'lpon 1917-yillardayoq ma'rifatparvar va demokratik kayfiyatdagи yosh ijodkor sifatida tanila boshlagan. Uning «Ourboni jaholat», «Doktor Muhammadiyor» singari dastlabki asarlarida qoloqlik va jaholatga qarshi ma'rifatparvarlik vaadolatparvarlik g'oyalari targ'ib qilingan.

Cho'lpon endigina yigirma yoshga qadam qo'yganda Oktabr ict'niarishi sodir

---

<sup>2</sup> Adabiyot. Umumiyo'rta ta'limmакtablarining 11-sinfi uchun darslik. — T.: «O'qituvchi», 2004, 125-bet.

bo'ldi. Shoir shundan so'ng «Qizil bayroq», Ishlirokiyun», «Turkiston», «Buxoro axboroti» kabi gazetalari tahririyatlarida mehnat qildi. Cho'lpon ongida, dunyoyoqarashida o'sish-o'zgarishlar yuz berdi. Bu evrilishlar shoir ijodida ham o'z ifodasini topa bordi. Shoирning «Uyg'onish», «Buloqlar» (1924), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935) to'plamlari o'zaro taqqoslansa, Cho'lpon she'riyatidagi g'oyaviy-badiiy fazilatlar, shuningdek, ijodiy kamolot yo'lidagi izlanishlar, turfalik va ziddiyat ochiq ko'rindi.

Cho'lpon - tonma'nodagi milliy shoир. U yurt hayotidagi vuluqlar, ibratli yumushlardan qanchalik quvonsa, erksizlik va tutqunlikdan, tengsizlik va adolatsizlikdan shunchalik istirob chekadi. Shoир she'rlarida dard va alamning ufurib turishi ham, avvalo, millat, Vatanga muhabbat tuyg'ulari bilan izohlanadi. Shoир Vatan istiqbolini ko'zlab dard chekadi, qiynaladi va o'zining ana shu yurak tug'yonlarini rang-barang shakllarda ifodalaydi. Zamonda kechayotgan o'zgarishlarga Cho'lponning munosabati uning she'rlari aniq ko'rsatiladi. Masalan, «Amalimning o'limi» she'rida: «Olislarda yig'lagan bu jonlar kimlar? Qullar o'lkasining insonlarimi?» — deb qayg'ursa, «Men va boshqalar» asarida faryod chekadi:

Erk ertaklarini eshitgan boshqa,  
Qullik qo 'shig 'ini tinglagen menman.  
Erkin boshqalardir, qamalgan menman,  
Hayvon qatorida sanalgan menman.

«Yong'in» she'rida esa shoир yurt mustamlakachilar oyog'i ostida toptalayotgani, xalq bosqinchilar tomonidan tahqirlanayotganiga dil-dildan achinib, nola qiladi:

Shunday katta bir o 'Ikada yonmagan,  
Yiqilmagan, talanmagan uy yo 'qmi?  
Bir ko 'z yo 'qmi qonli yoshi tommagan,  
Butun ko 'ngil umidsizmi, siniqmi?

Shunisi muhimki, shoир yurtdagi erksizlik, vayronalik va xarobotni tasvirlash bilan kifoyalanib qolmaydi. U shu holatdan qutulish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Erksizlik va jaholatdan qutulishning Cho'lpon tanlagen yo'li qat'iy va

kurashchanlik ruhi bilan sug'orilgan. Chunonchi, «Buzilgan o'lkaga» she'rida o'z yurtga sig'indilik, mustamlaka azobidan ezilgan, vayron bo'lgan o'lkamizga qarata xitob qilib, xalqni ogohlantiradi, hushyorlikka chaqiradi:

Ey, tog 'lari ko 'klarga salom bergan zo 'r o 'Ikal  
Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko'lanka?..  
Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan hur o 'Ika,  
Nega sening bo 'g'zing bo'g'ib turar ko 'lanka?!..

Cho'lpon she'r davomida bu poetik fikrni kengaytira va chuqurlashtira boradi. Shu tariqa o'lkamiz xalqlarini uyg'onishga, erku huquqini qo'ldan bermaslikka da'vat etadi. Haqsizlikka qarshi erk va ozodlik uchun kurash g'oyalarini asarning leytmotivi darajasiga ko'taradi:

Sening erkli tuprog 'ingda hech haqqi yo 'q xo 'jalar  
Egasini bir qul kabi qizg 'anmasdan yanchalar.  
Nega sening qalin tovshing: «Ket!» — demaydi ularga?  
Nega sening erkli ko 'ngling erk bermaydi qo'llarga?

Cho'lponning «Ko'ngil», «Erk istagi», «Qo'zg'olon», «Qilich va qon» kabi she'rlari ham ana shu qora ko'lanka — mustamlakachilikka qarshi isyon tarzida bitilgan. «Ko'ngil» she'rida shoir millatga murojaat etib, bo'ysunmaslikka chaqiradi:

Tiriksan, o'lmagansan,  
Sen-da odam, sen-da insonsan,  
Kishan kiyma, bo 'yin egma,  
Ki sen ham hur tug 'ilg 'onsan.

Cho'lpon she'riyatida zulm va istibdodga barham berish maqsadida dushmanga qarshi qurol bilan bo'lsa-da, ko'tarilish g'oyasi ilgari surilgan. Bu holat «Bas endi» she'rida «Qo'limda so'nggi tosh qoldi yovimga otmoq istayman» tarzida ochiq ifodalanadi:

Yetar, has, chekdan oshgandir  
Bu qarg 'ish, bu haqoratlar!  
To'liqdir, balki toshgandir  
Tubanlik ham safolotlar!..

Qo 'limda so 'nggi tosh qoldi,  
Yovimga otmoq istarman!  
Ko 'zimda so 'nggi yosh qoldi,  
Amalga yetmak istarman!..

Cho'lponning «Bahorni sog'indim», «Kuz guli», «Vahm», Tabiatga», «Kuzaklar», «Yorug' yulduzcha», «Po'rtana» she'rlarida ham zulm-istibdodga, mustamlakachilikka qarshi erkinlik istagi, nola va fig'on aks-sado beradi.

Shoirning «Xalq» she'rida esa ozodlik va erk mavzusi yanada lioshqacha bir yo'sinda, g'oyat aniq va tiniq bo'yqlarda aks ittirilgan:

Xalq dengizdir, xalq to 'lqindir, xalq kuchdir,  
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...  
Xalq qo 'zg 'also, kuch yo 'qdirkim, to 'xtatsin,  
Quvvat yo 'qkim, xalq istagin yo 'q etsin.  
Xalq isyoni sultanatni yo 'q qildi,  
Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi...

Asarda shoir xalqning buyuk kuch-qudrat sohibi ekanini tasvirlash bilan birga, uning eng ezgu va muqaddas istagini ham obrazli tarzda ko'rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda, xalq istagi o'z erkini o'z qo'liga olib, ozodlikka erishishdir. Cho'lpon nazdida, agar xalq istagi sari qo'zg'alsa, uni hech qanday kuch tutib qola olmaydi. Faqat gap xalqda ana o'sha tilakni, istakni uyg'ota olishdagina ekanligini ham shoir teran anglaydi. Shoirning istagi xalqda istak uyg'otishdir:

Xalq istagi — ozod bo 'lsin bu o 'lka,  
Ketsin uning boshidagi ko 'lanka.

Cho'lpon o'z she'rlarida xalq va Vatan obrazlarini aks ettirib, ozodlik va istiqlol g'oyalarini ifodalar ekan, turli tasviriy vositalar, jumladan, tabiat manzaralaridan mohirona foydalanadi. Darhaqiqat, Cho'lpon tabiatni juda nozik va teran his qiladi. Lekin u tabiat manzaralarini shunchaki asar bezagi sifatida tasvirlamaydi. Aksincha, ularga insonni ulug'lash, millatsevarlik, vatanparvarlik, erk-ozodlik g'oyalarini ustalik bilan yuklay oladi. «Ko'klam keladir» she'rida shoir fasllar go'zali — ko'klamning maftuni sifatidagina ko'rinxaydi. U yurt hayotida ham

bahor singari o'zgarish, tozarishlar ro'y berishini orzulaydi, Vatanning ko'klam kabi gullab-yashnashini istaydi hamda bu ezgu tuyg'uni asarning umumiy ruhiga singdirib yuboradi:

Ko'klamoyim yo 'lga chiqqan.

Ko'klam oyim qo 'zg 'algan.

Ko'k ko 'ylakning bitishiga uncha ko 'p ham qolmagan!..

Ko'klamoyning ipak ko'ylak etaklari sudralib,

Qora yerning boshlarini silab-siypab keladilar.

U silashdan, siypashdan quvvat olib, kuch olib

Qora yer ham ko'ksidagi oltinlarni beradir.

Ko'klam bilan yurtimga ham bir ko'karish kelsaydi,

Ko 'ngillar ham havolardek ko 'klam hidi bersaydi,

Dillarga ham havolardek ko'klam ruhi kirsaydi!..

Cho'lponning «Bahorda», «Binafsha», «Boychechak», «Eslash», «Bahorni sog'indim», «Bahor keldi», «Yana ko'klam», «Go'zal» kabi she'rlarida ham tabiat tasviri millat, uning dard-r.iaklari bilan uzviy birlikda yorqin va jozibali qilib ifodalangan.

Cho'lpon she'riyatining asosiy mavzusi —Vatan, bosh qahraropni esa — millati, xalqi. Uning har qanday she'ri qarida millat va yurt erki, taraqqiyoti g'oyasi yotadi. Cho'lpon o'z she'rlarida zamonaviy, xalqchil g'oyalarni olg'a surar ekan, tom ma'nodagi rostgo'y shoir sifatida doimo haq so'zni o'ylaydi, haqiqatni yozadi. Cho'lpon nafaqat ijod, hatto inson erki toptalgan va rost gap qatag'on qilingan mash'um 30-yillarda ham haqiqatni ochiq-oydin aytishdan tap tortmagan. Shoир millatga qarata: «Kishan kiyma, bo'yin egma, ki sen ham hur tug'ilg'onsan», — deganida yangi sho'rocha mustamlakachilikni nazarda tutgan edi. U doimo ko'rgan, o'ylaganini qo'rqlay tilga ola olgan. Jumladan, kolxoz vositasida butun Sho'roning tanazzulga mahkumligini ochib beradi:

Kolxoz, uning fikricha, Gullaydigan bir narsa Faqat Sho 'ro bir ozroq Kenglik bilan qarasa. Ki ya 'ni: Oliq-soliqning, Kommunist-firqalikning ipini tortib tursa...

Ko'rindiki, Cho'lpon she'riyatining mavzu doirasi juda keng u," Shoир o'z

asarlarida yangi davr muammolari, Vatan, inson qadr-qimmati, xalq qudrati, erk, ma'naviyat ilm-ma'rifat taraqqiyoti kabi zamonaviy masalalarni aks ettirgan. Shu bois shoir ijodida zamonaviy ruh bo'rtib turadi.

Aytish kerakki, o'sha davrda yashab ijod etgan boshqa shoirlar bisotida bo'lgani kabi, Cho'lpon ijodida ham zamonasozlik va murosasozlik ruhida yozilgan «qizil» she'rlar uchraydi. «Ozod turk bayrami», «10-yil», «Qizil bayroq», «O'n yil Leninsiz», «Diyorim», «Soz» kabi she'rlar shu jumladan bo'lib, ularda inqilob va yangi hayot mavzusi bir tomonlama tasvirlanadi, madh etiladi. Mash'um shaxsga sig'inish davrida, mamlakatimizda jabr-zulm, adolatsizlik va qama-qamalar avjga chiqayotgan bir paytda (1935-yilda) e'lon qilingan «Soz» she'rini olaylik. Unda zamonasozlik, murosasozlik ochiq ko'rindi. Biroq bu ham Cho'lponona ustalik bilan amalga oshirilganki, hatto mana shunday she'rlar-da adabiyotimizdan o'zining munosib o'rnini topa oladi:

Bir necha yil qantargach,

Yana oldim sozimni.

Endi aytib yig 'lamas,

Ko 'ngildagi rozimni.

Ko 'ngildagi kudurat

Ko'tarildi, nihoyat

Endi, ilhom manbai —

Qaynab yotgan shu hayot.

Umuman olganda, Cho'lpon she'riyati mazmunan boy va shaklan go'zal. Cho'lpon she'riyatining asosiy xususiyatini erksevarlik, millatparvarlik, haqqoniylilik va xalqchillik, g'oyaviy aniqlik va badiiy go'zallik singari fazilatlar tashkil etadi. Shoir asarning shakl va mazmunga dorr barcha unsurlarini qunt bilan ishlab, ularga jilo va sayqal beradi. Bunda shoir til imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Ana shuning uchun ham Cho'lpon she'rlari tilining aniq-ravonligi, obrazli va jozibadorligi bilan maftun etadi. Shoir nazmining tili obrazli va shirali bo'lish bilan birga, g'oyat sodda, ixcham va torn ma'noda xalqchildir. Ana shuni nazarda tutib, adabiyotshunos Olim Sharofiddinov 20-yillardayoq: «*Cho'lponning tili sodda, har*

*turli fikrlarni ifoda qilishga yararli va nuqsonsizdir. Bu kungi o'zbek adabiy tili, shubhasiz, Cho'lpon tilidir*, — deb yozgan edi. Oybek esa: «*Bu kungi yosh nasl Cho'lponning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko'p sevadi. Undan ko'p go'zalliklar oladi*», — tarzida hassos shoir tiliga yuksak baho bergandi. Cho'lpon o'z she'rlarida xalq tili boyliklaridan foydalanar ekan, so'z va iboralarni tejab-tergab, o'z o'rnida ustalik bilan ishlatadi. Shu orqali xalq hikmatlariday sado beruvchi mazmun, jarangdor va suluv baytlar, quyma misralar yaratadi. ushbu fikrni quyidagi misralar tasdiqlaydi:

Muhabbat osmonida go'zal Cho 'Ipon edim, do'stlar,  
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

(«*Qalandar ishqisi*»)

Cho'lpon she'riyati vazn va qofiya jihatidan ham tugal, kam-ko'stsiz. Shoir o'z ijodi bilan o'zbek she'riyatining asosiy vazni bo'lgan barmoqning imkoniyatlari cheksiz ekanini yana bir bor isbotladi. Cho'lpon aksariyat she'rlarida asar tilining go'zal va jozibadorligini ta'minlash bilan vaznning musiqiyligi va o'lchov (ritm)ning aniq va jarangdorligiga erishadi:

Sochilgan sochlaringday sochilsa siring  
Anor yuzlaringni kimga tutasan?  
O'zing-ku: «Ularda vafo yo'q», — deding,  
Nimaga ularni tag'in kutasan.

Dilrabo qo'shiqdek ravon, musiqiy ohang jihatidan mukammal va yoqimli bo'lgan bunday misollarni Cho'lpon she'riyatidan ko'plab keltirish mumkin:

Keng dalada kiyik o'ynar,  
Kiyik ko'zlini yigit o'ylar.  
Kiyik ko'zi ko 'ngil tortar,  
Oshiq ko 'rsa dardi ortar.

Xullas, Cho'lponning she'riy tili nihoyatda boy, mukammal shakllangan. Cho'lpon tilining bu xususiyatlari uning nasriy asarlariga ham tegishlidir. Darhaqiqat, Cho'lpon «Qor qo'ynida lola», «Kleopatra», «Oydin kechalarda», «Novvoy qiz», «Nonushta» (hikoyalar), «Yov» (qissa), «Kecha va kunduz» (roman) singari asarlar

yozib, nasr sohasida ham qimmatli meros qoldirgan.

Cho'lponning ikki kitobdan iborat bo'lgan «Kecha va kunduz» (1935) tarixiy romani adabiyotimizning oltin xazinasidan mustahkam joy egallagan. Romanda birinchi jahon urushi davridagi Turkiston hayoti aks ettiriladi. Ayni zamon adib nazdida xalqimiz hayotidagi qorong'i kechadirki, roman nomi ham shunga ishora, birinchi kitob «Kecha», ikkinchi kitob «Kunduz» deb ataladi. Asarda mamlakatda o'sha davrda hukm surgan ijtimoiyadolatsizlik, chorizmning ich-ichidan "chirib, nurab borayotganligi, oq podsho hokimiyatining butunlay inqirozga yuz tutganligi, chor va mahalliy amaldorlarning kirdikorlari, razil xatti-harakatlari ro'y-rost ochib tashlangan. Shu bilan birga, mamlakat buyuk ijtimoiy o'zgarishlar arafasiga kelib qolgani ishonarli tarzda, obrazli ravishda ko'rsatib berilgan.

Romanda Miryoqub epaqa o'yli odam, yangilik-o'zgarish tarafdori, millat qayg'usi bilan yashaydigan insondir. U doim bilmaganini o'rganish harakatida bo'ladi. Noib to'radan «imperiya»ning nimaligi, uning buguni, xalqning kuchayib borayotgan noroziligi haqida so'raydi. Noibdan imperiya ahvoli halokatli, chorasiz ekani to'g'risida javob olgan Miryoqub suhbat boshlaydi:

— Chorasiz dard yo'q, deydi bizning hakimlar...

—Safsata hammasi, safsata... Chorani bizning ichki dushmanlarimiz, ya'ni inqilobiyun degan toifa ko'rsatadi...

Qani, nima deydi u toifa?

—Podshoni ham hayda, amaldorlarni ham hayda, mirshablarni yo'qot, jandarmalarni o'ldir, urushni to'xtat. Boylardan yer-suvni, fibrikachilardan fabrikalarni, zavodchilardan zavodlarni tortib olib xalqqa ber, deydi.

—Ularning xalq degani — qora xalq, yalang oyoqlar... Yurtni o'shalar so'rasisin, deydi.

Savol-javobni Noyib to'ra: «...bu buyuk imperiya dahshatli to'lqinlar zulmatga, belgisizlikka, yo'qlikka qarab ketayotir. Uni to 'xtata oladigan vu (jidqarib qoladigan hech bir kuch ko 'rinmaydi... balki, unday kuch aslida in '<i<lir, o 'zi...», — deb yakunlaydi.

«Kecha va kunduz» romanida chorizmning halokat tomon borayotgani,

mustamlakachilar kirdikorlari, yovuz niyatları, zulmu istibdodi, mahalliy xalqning ilm olishi, ma'rifat egallashi, umuman, yurt taraqqiyotiga qarshi xatti-harakatlar yuksak badiiyat, qaynoq ziddiyat bilan ifodalangan. Romanda tasvir rlilishicha, Noyib to'ra mingboshini jadid maktabini yopishga majbur qiladi. Buyruqdan unchalik ham rozi bo'lмаган Akbarali mingboshi ilojsizlikdan: «Noyib to'ra qo'y maydi-da, qanday qilay», — deydi. Shunda Miryoqub epaqa: «Noyib to 'ra ayyor odam. O 'zi buyruq berib yoptirsa bo 'lardi, unday qilmadi. O'zi bir chekkada turib, siz orqali qildirdi... Tayoq endi kelib Sizning boshingizda sinadi!», — deya masalaga aniqlik kiritadi.

"Kecha va kunduz»da xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyalga molik bo'lган barcha ziddiyatlar, adibning bor o'ylari ifodalangan. Unda mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og'ir, kulfatu mashaqqatlarga to'liq hayoti jonli voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta'sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri bo'lган go'zal va xushovoz, sodda va huquqsiz qiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi.

Zebi beg'ubor hayot kechirishni, yoshlik gashtini surishni orzu qiladi. Lekin uni zo'rlab, xohishini hisobga olmay, Akbarali mingboshiga uch xotin ustiga beradilar. Zebi mingboshining to'rtinchi xotini sifatida kundoshlar o'rtasidagi jhar xil fisqu fujur va buzuqliklarning, rashku mojarolar va zimdan meros talashishlarning guvohi bo'ladi. Baxtlimi-baxtsiz tasodif tufayli Zebiga atalgan zaharni Akbarali mingboshi ichib, vafot etadi. Ushbu o'limda Zebi ayblanib, sudga tortiladi. Romanda Zebi xarakteri, uning ong-tushunchasi, ruhiyati jonli va g'oyat tabiiy ko'rsatib berilgan. Zebi shu darajada sodda va oqko'ngilki, u qing'irlikni, shumlikni bilmaydi, birovga yomonlik qilishni xayoliga ham keltirmaydi. U qamoq, sud va surgun haqida tasavvurga ham ega emas. Ana shunga ko'ra bu sodda muslimmon ayol sudda qora kursida o'tirganida ham hukm, jazo qanday bo'lishini emas, balki butunlay boshqa narsani — muslimmonchilik qoidalariga shak keltirmaslikni o'ylaydi: «Voy, o'laqolay! Shuncha nomahramning oldida yuzimni ochamanmi? Undan ko'ra o'Iganim yaxshi emasmi?» — deydi. Sud yig'ilishi tugartugamas: «Endi uyimni qanday qilib topib boraman», — deya g'am chekadi. Hukm

e'lon qilinganda esa: «Op-ochiq turgan narsani bular tushunmaydi-yu, ular tushunarmidi?» — deb yuqoriga norozilik arizasini berishdan voz kechadi.

Romandan olingan quyidagi parchada ham Zebining ong-tushunchasi, ruhiy holati, beg'ubor fe'l-atvori yorqin aks etgan: «Zebi bo'lsa o'sha zaharlanish hodisasidan beri doim karaxt bir holda bo'lardi: uning miyasi birdan falajga yo'liqqan kabi edi. U butun bir so'roq, tergov, konvoy, sud va zakonchilarga ajib bir loqaydlik bilan — xuddi jonsiz odamday qarar; nimalar deyishni, o'zini nechuk mudofaa qilishni, nima deb gap qaytarishni o'yłamasdi. Uning miyasida, miyasining ham allaqaysi olis bir burchagida xira va tumanli bir fikr bor: u fikr shuncha olisda va xiraki, uning nimaligini anglayolmaydi, bechora... Miyasini tugumlab juda zo'r bergen vaqtda u tumanli fikr mana bu kepataga kirganday bo'ladi: «Men o'ldirganim yo'q... Bu aniq... Meni qo'yib yuboradilar... Yana o'sha yerga qaytamanmi? Nima keragi bor... Oyim-chi? Oyimning yoniga qaytaman... Erim o'lib qoldi, deyman... Yig'layman...»

«Kecha va kunduz» romanida Zebining otasi Razzoq so'fi, onasi Qurbon bibi obrazlari ham mahorat bilan yaratilgan. Razzoq so'fi ruhan mayib, ma'nан qashshoq shaxs bo'lsa, Qurbon bibi insoniy huquqlari o'shaadolatsiz jamiyat tomonidan oyoqosti qilingan va har jihatdan ezilgan mushtipar, mehribon ona obrazidir. Bu ikki obraz vositasida yozuvchi hayotdag'i moddiy qiyinchiliklar kishining ma'naviy olamiga qanchalar ta'sir etishini, uning dunyoqarashini, fikrlash doirasini, aql-zakovatini cheklab qo'yishini haqqoniy aks ettirgan.

«Kecha va kunduz» romanida nopok va nodon, maishatparast va ma'naviy tuban mingboshi Akbarali, mamlakat va xalq boshiga balo bo'lgan mustamlakachi amaldor Noyib to'ra obrazlari ham muhim o'rın egallaydi. Ular vositasida birinchi jahon urushi davridagi chor va mahalliy amaldorlar hamda «tadbirkoru ishbilarmon»larining ichki va lashqi dunyosi, ularning xalq va mamlakat manfaatiga zid xatti-harakatlari fosh etilgan.

Cho'lpon romanda Miryoqub obrazini yaratishda personajning o'z-o'zini fosh etishi usulidan o'rınli foydalangan. Asarda Miryoqub-tergovchi bilan Miryoqub-aybdor o'rtasidagi ichki dialog, ya'ni personajning o'z-o'zi bilan savol-javob qilib

so'zlashishi juda muvaffaqiyatli chiqqan.

Shunday qilib, «Kecha va kunduz» romanida Zebi, Razzoq So'fi, Qurbon bibi, Miryoqub, Akbarali, Noyib to'ra singari asosiy obrazlarning har biri o'ziga xos xarakteri, ichki-tashqi qiyofasi, xatti-harakati bilan ravshan tasvirlab berilgan. Shu bilan ham, asardagi Poshshoxon, Sultonxon, Zunnun, Enaxon, Mariya, Valya, Saltanat singari ikkinchi darajali timsollar ham ishonarli qilib ko'rsatilgan.

Roman sujeti qiziqarli va ta'sirli bo'lganidek, u badiiy tuzilish pliatidan ham yuksak san'at namunasidir. Asar tili — boy, jozibador. Qahramonlar tili ham, muallif nutqi ham ixcham va obrazli, go'zal va serjilo. Xalq qo'shig'i «Yoriltosh» ohangida to'qilgan va roman voqeasi yakunida berilgan quyidagi baytlar ham asar husniga husn, ta'siriga ta'sir qo'shgan:

*Zebi, Zebi, Zebona, Men ko 'yingda devona. Seni soldi o 'z otang, Men bo'layin sadag'ang! Zahar qilib oshingni, Pirim yedi boshingni! Zebi, Zebi, Zebonam, Qayda qolding, dilbarim?..*

«Kecha va kunduz» romanida ba'zi naturalistik tafsilotlar, ayrim yuzaki tasvirlar va chala obrazlar ham yo'q emas. Asardagi Zebi, Miryoqub obrazlari notugaldek, qismati yakunlanmagandek. Balki romanning ikkinchi kitobida bular, ehtimol, tasvirlangandir. Ammo, afsuski, ikkinchi kitob hanuzgacha topilmagan.

Cho'lpon dramaturgiya janrida ham o'z iste'dodini namoyon etgan. U «Cho'rining isyoni», «Halil fajang», «Cho'pon sevgisi», «Zamona xotini» («Mushtumzo'r»), «O'rtoq Qarshiboyev», «Yorqinoy» singari katta-kichik sahna asarlarini yaratgan. Bu pyesalar orasida eng baquvvati va mukammali, shubhasiz, «Yorqinoy» dramasidir. Bu yirik sahna asari folklor materiallari asosida yaratilgan. Buni muallifning o'zi ham tasdiqlaydi. Cho'lpon pyesani: «Totli va boy tili bilan ertak (cho'pchak) aytib berib, shu dramaning yozilishiga sabab bo'lgan kampir onaga hurmat bilan bag'ishlayman», — deb qayd qilgan edi.

Bog'bon yigit Po'lat bilan O'lmas Botir nomli sarkardaning qizi Yorqinoy bir-birini sevadi. Lekin sarkarda bu tengsiz sevgiga tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatadi. U Xonzodani o'ziga kuyov qilmoqchi bo'ladi. Po'lat esa bu adolatsizlikka e'tiroz bildirib, sarkarda dargohini tark etadi; xalqning xonga qarshi jangovar harakatiga

qo'shiladi. Zolim xonning O'lmas Botir sarkardalik qilgan qo'shiniga qarshi mardona jang qiladi. Yorqinoy esa Kalning hiylasiga uchib, Nishobsoybegining changaliga tushadli. Bek Yorqinoya: «Nikohga rozi bo'lmasa, qo'l uzataman», — deb zo'ravonlik qilmoqchi bo'ladi. Voqeа davomida qiz hiyla ishlatib, Kalni o'z tomoniga og'dirib oladi va uning ko'magida Bek tuzog'idan qutuladi. Po'lat huzuriga borib, unga haq yo'lida yordam beradi. Asar Po'latning Yorqinoya qarata: «Meni yurt uchun yana bir marlaba o'limdam qutqardingiz, keling, o'sha yurtning ishini birgalashib qilaylik! Yurtning ishini birgalashib qilgandan Keyin...» — degan hayotbaxsh so'zlari bilan tugaydi.

Dramaning Yorqinoy, Po'lat, O'lmas Botir, Kal, Nishobsoybegi, Momo xotin singari asosiy obrazlari o'ziga xos xarakter bilan ta'minlangan. Shunga ko'ra ularning ma'naviy qiyofasi — ichki-tashqi olami, niyati, maqsadi va shu yo'lдagi hatti-harakati aniq. Dramada Yorqinoy obrazi markaziy o'rinda turadi va u bosh qahramon sifatida asar voq'ealarining boshidan oxirigacha ishtirok etadi. Muiallif Yorqinoy obrazi orqali xotin-qizlarning hayotini, ularniing aql-idrokda, mardlik va shijoatda erkaklardan aslo qolishmasliklarini ochib bergen. Po'lat obrazida mardlik, insonparvarlik, qiyinchilikdan qo'rmaslik, kamtarlik singari ezgu xususiyatlar miijassamlashtirilgan. O'lmas Botir — o'zini katta oluvchi, qudratim har yoqqa yetadi deb o'ylovchi kishi. Lekin xonlik u yoqda tursin, o'z yolg'iz qizini saqlay olmaganini ko'rgach, hayot haqidagi o'ylari chuvalashgan ota holatini ifoda etuvchi nhi azdir. Bek timsolda esa noinsoflik, jabr-zulm va nopoliklikni «dal qilib olgan yovuz bek fosh etilgan. Pyesada Kal obrazining ham o'ziga xos o'rni va vazifasi bor. Kal obrazi asarni xushchaqchaq kulgi va humor bilan sug'organ. Raining o'ziga xos fe'l-atvori, xusan, individual tili yorqin va jonli chiqqan. Dramaturg Kalning o'ziga xos tilini yaratishda xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan saj san'atidan ustalik bilan foydalangan. «Suvday shovillab, o'tday lovillab, chumchuqday pirillab, shamoldiay pirillab...», «O'zi yosh, so'zi tosh, ko'zi bebosh, qora qosh, esi chosh, vosh-vosh...», «Oyim poshsha, siz o'zimning xudo bergen qizimsiz, ko'ksimda kulgan yulduzimsiz, qo'limga qo'ngan qunduzimsiz, yayrab yurgan qo'zimsiz, uchib o'ynagan qo'ng'izimsiz, qarab turgan ko'zimsiz, qizorib

turgan yuzimsiz, to'kilib turgan so'zimsiz...» va hokazo.

«Yorqinoy» dramasida sujet qiziqarli, asosiy voqealar rivoji me'yorida. Asardagi hamma voqea va epizodlar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bunda dramaturg favqulodda voqea-hodisalar, ko'plab hayotiy detallar va jonli harakatlar topgan va ularni joy-joyida ishlatgan. Xalqparvarlik vaadolatparvarlikni, qahramonlik va sevgiga sodiqlikni targ'ib etuvchi «Yorqinoy» dramasi o'z vaqtida sahnalashtirilgan va tomoshabinlarga manzur bo'lgan edi. Bu asar O'zbekiston mustaqillikka erishgach, O'zbek Milliy Akademik drama teatrida yana qayta sahnalashtirildi.

Cho'lpon she'riy, nasriy va dramatik asarlar yaratish bilan birga, adabiy-tanqidiy va publitsistik maqolalar ham yozgan. Uning «Adabiyot nadur?», «Sho'ro hukumati va sanoye' nafisa», «Ulug' hindu», «Sharq uyg'onmoqda», «Buyuk mакtab egasi», «Tagor va tagorshunoslik», «Uvaysiy», «Mirzo Ulug'bek», «500-yil» kabi maqolalari o'z vaqtida ko'pchilikning diqqatini jalb qilgan edi. Ularning aksariyati hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Masalan, 1914-yilda yozilgan «Adabiyot nadur?» maqolasi hozirgi kunda ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. 17 yashar yigit tomonidan bitilgan bu maqolada adabiyotning kishilik jamiyatidagi o'rni va mas'uliyati haqida, yozuvchilarni tarbiyalab yetishtirish umumxalq ahamiyatiga ega bo'lgan muhim ish ekani haqida teran fikr-mulohaza yuritilgan. Cho'lpon, avvalo, «Adabiyot nadur?» degan savolga javob berib, «Hayotimizning beto'xtov harakat qilib turmogii uchun suv, havo naqadar zarur bo'lsa, kundalik maishatimiz yo'linda ruhimiz va vujudimizni zahmatkash falakning qora kirlari, achchiq qurumlaridan yuvib turmoq uchun adabiyot shul qadar zarurdir», — deb yozadi. So'ngra millatning istiqboli adabiyol taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq ekanini qayd etib, so'z san'atining ahamiyatini kamsitgan millatning kelajagi porloq emasligini ta'kidlaydi. Jumladan, «O'z adabiyotining taraqqiyoti borasinda justujo' qilib, har toifa adib va shoirlar yetishtirmoq g'амини yemagan millat oxir bir kun liissiyotlardan, o'y-fikrlardan mahrum qolib, oxir-natijada ma'nан inqiroz sari yuz tutar. Muni inkor qilib bo'lmas, aslo. Inkor qilg'on xalq o'zini inqiroz daryosiga g'arq bo'lurin iqror qilg'onidir», — deb yozadi.

Cho'lpon — serqirra va noyob iste'dod sohibi. U o'zbek adabiyotining

Cho'lpon yulduzi. Cho'lpon ulug' shoir, iste'dodli dramaturg sifatida so'z san'ati xazinasiga bebaho hissa qo'shgan.

Cho'lpon she'riyatda o'ziga xos ijodiy maktab yaratgan usloz shoir. 20-30-yillarda Oybek, G'afur G'ulom, Uyg'un, Mirtemir, Usmon Nosir singari ijodkor yoshlar bu maktabdan bahramand bo'lib, Cho'lpon ijodidan badiiy mahorat sirlarini o'rgandilar.

Yozuvchilarning Cho'lpon asarlaridan ijodiy o'rganishlari ayni kunlarda ham izchil davom etmoqda. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva, Rauf Parfi, Omon Matjon, Azim Suyun, Usmon Azim, Xayriddin Sultonov singari yozuvchi-shoirlar Cho'lponning eng yaxshi an'analarini yangi zamon mustaqillik davri talablari asosida rivojlantirmoqdalar.

Xalqimiz va davlatimiz so'nggi yillarda Cho'lpon xotirasini abadiylashtirish borasida talaygina tadbirlarni amalga oshirdi. O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan 1998-yilda Cho'lpon tavalludining 100-yilligi katta tantana bilan nishonlandi. Uning asarlari yangidan nashr etildi. Cho'lpon hayoti va ijodi haqida vangi ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Hozirgi vaqtida Respublikamizda Cho'lpon nomi bilan ataladigan maktablar, obod ko'chalar, nufuzli nashriyot va xo'jaliklar bor.

## **Adabiyotlar**

1. Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat . – T.: Akademiya, 2000.
2. Alimova A., Rashidova A. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. T.: Akademiya, 1999.
3. Avloniy A. Asarlar. 2 tomlik. – T., 1998.
4. Mamajonov S. Bizning Cho‘lpon. – T.: Yozuvchi, 1997.
5. Mirzayev S. Hayot va adabiyot. – T.: Sharq, 2001.
6. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T., 2005.
7. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. – T.: Yozuvchi, 2000.
8. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: Ma’naviyat, 2000.
9. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. – T., 2005.